

**MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA SAHNAVIY MUSIQA
ASARLARINING O'RGANISH YO'LLARI MUSIQADA
VOKAL – SIMFONIK JANRLAR**

Xolmirzayeva Gulnoza Alijonovna

Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti

Musiqa ta'limi fakulteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lism muktablarida sahnaviy musiqa asarlarini o'rganish yo'llari, musiqada vokal-simfonik janrlarni o'rganish asosida o'quvchi yoshlarda musiqa madaniyatiga qiziqish uygotish muammolari keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: roman, kantata, balet, ommaviy qo'shiqlar xor, vokal,simfoniya, xalq musiqasi, kasbiy musiqa

O'zbekiston ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi mamlakatimizda har tomonlama rivojlangan, sharqona axloq-odobga asoslangan milliy tarbiyani amalga oshirish. Bu maqsadni amalga oshirish umumiyl o'rta ta'lim muktablarida o'quvchilarni xalq musiqasi asosida Vatanga muhabbat, yuksak axloqiylik, poklik, halollik ruhida tarbiyalashni talab etadi. O'zbek xalq musiqasi mazmunida, oliy insoniy fazilatlar, yuksak madaniyat va ma'naviyat, xalqimizning milliy ruhiyati, orzu-umidlari tasvirlanadi. Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun ta'lim mazmunini va o'qitish uslubiyotini takomillashtirish, musiqa ta'limining milliy, an'anaviy va hozirgi zamon yutuqlariga hamda ilg'or tajribalariga ijodiy yondashib, musiqa darslarida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Har bir xalqning o'ziga xos musiqasi bo'lib, unda milliy musiqa san'atining eng yorqin namunalari o'z aksini topgan. Xalq musiqasi turli mehnat sharoitlarida, tarixiy voqealarda yaratilib, uzoq yillar davomida sayqallanib, avloddan-avlodga o'tib kelgan. Har bir musiqani asosi – xalq musiqasidir. O'zbek xalq musiqasi o'zining badiiy ijrosi va ijrochilik talablariga qarab ikki turga bo'linadi:

1. Xalq musiqasining ommaviy janri.
2. Og'zaki an'anadagi o'zbek kasbiy (professional) ustozona musiqa.

O'zbek xalq musiqasining ommaviy janriga: lirik qo'shiqlar, mehnat, marosim, bayram qo'shiqlari, lapar, alla, yalla, terma, epik va bolalar ashulalari kiradi.O'zbek musiqasining og'zaki an'anadagi kasbiy janriga, bastakorlik va kompozitorlik musiqasi, katta ashula maqomlar, opera musiqasi, drama, mumtoz ashulalar, romanlar, baletlar, simfoniyalar kiradi. Bu asarlarning tuzilishi murakkab ritm-usullardan iborat bo'ladi. Shu bois professional (kasbiy) musiqani ijro etishuchun boy tajriba, yuksak ijrochilik mahoratiga, jarangdor va keng diapazonli ovozga ega bo'lish kerak. Og'zaki

an'anadagi ustozona (professional) musiqa merosimizda ashula va cholg'u kuylari keng tarqalgandir. Har bir ijrochi o'ziga xos ijro uslubiga ko'ra asarni talqin etib, tinglovchilarga yetkazadi. Cholg'u kuylari va qo'shiqchilik (ashula, katta ashula) sohlari bastakorlik ijodining asosini tashkil etadi. O'zbek bastakorlari ashula va kuylar yaratish bilan birga kompozitorlik musiqa janrlari – musiqali drama, opera va baletlar yaratishda ham kompozitorlar bilan hamkorlik qiladilar. Xalqimizning sevimli bastakorlari – To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodiqov, Muhammadjon Mirzayev, Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatov singari ijodkorlar fikrimizga misol bo'la oladi. Ularning har biri bastakor bo'lish bilan birga mahoratli ijrochi hamda ulkan san'atkor bo'lishgan. Yevropa san'atida shakllangan kompozitorlik ijodi esa opera simfoniya, orotoriya, balet, opera, kino musiqasi kabi ko'povozli turlarini o'z ichiga qamrab oladi. Bunday musiqa yaratuvchi ijodkor, odatda, koservatoriyada maxsus ta'lif olgan bo'ladi va uni «kompozitor» deyishadi. Kompozitorlarning simfoniya opera va boshqa asarlari nota yozuvlari orqali o'z aksini topadi. Hozirgi zamon musiqa madaniyatida kompozitorlik musiqa uslubi barcha xalqlar musiqa madaniyatida keng rivojlanmoqda. Ijodiyotning bu turi xalq musiqasiga tayanib ravnaq topadi. Kompozitorlik musiqa namunalari (roman, xor, simfoniya, vokal, kantata, balet, ommaviy qo'shiqlar)ni yaratishda xalq musiqasi bebahoh ijdor manbai bo'lib xizmat qiladi. Bunda ilk kompozitorlik asarlari yaratgan V.Uspenskiy, I.Mironov, A.Kozlovskiy, G.Mumel va boshqalar. Bu tajriba asosida o'zbek kompozitorlari M.Burxonov, M.Ashrafiy, M.Leviyev, S.Yudakov va boshqalar xalq musiqasi asosida yangi ko'p ovozli asarlar yarata boshladilar. Bu uslub tufayli o'zbek musiqa madaniyatida xor, simfoniya, opera, balet singari janrlar yaratila boshlandi. Kompozitorlar xalq musiqasidagi ikki uslubda foydalanadilar: birinchi uslubda xalq musiqasi namunasini olib, kuy tuzilishini saqlagan holda xor, orkestr, ovoz yoki bir cholg'u asbobga mo'ljallab ko'povozli (garmoniya) uslubda moslashtiradilar. Natijada xalq musiqasi professional musiqasi darajasiga ega bo'lib, ifodaviyligi va ijro etish imkoniyati kengayadi. Bu uslubda kopozitorlardan M.Burxonov, Sobir Boboyev, Ikrom Akbarov, Doni Zokirov, Botir Umidjonov, Sayfi Jalil, Shermat Yormatovlar xor, orkestr va cholg'u asboblar uchun talay asarlar yaratdilar. Bunday asarlarga «Sari kuhi baland», B.Urol «Qora soch», Botir Umidjonov «Boychechak», Shermat Yormatov «Maysa»sini misol keltirish mumkin; ikkinchi uslubi xalq musiqasi ohangi ruhida yangi asarlar yaratishdir. Bu uslubda kompozitor milliy musiqa ohangidan begona bo'lmagan yangi kuy yoki kuy parchasini yaratib, uni yangi asarlar mazmunida rivojlantiradi. Bu uslubda M.Ashrafiy, S.Yudakov, U.Musayev, T.Qurbanov, M.Nasimov, M.Bafoyev kabi yetuk kompozitorlarimiz qo'shiqlar romanlar, musiqali drama, syuita, opera va baletlar yaratganlar. Bunga misol qilib, «Maysaraning ishi», «Tohir va Zuhra», «Nurxon», «To'maris», «Ttanovar», «Sevgi tumor» baletlarini keltirish mumkin. Bu musiqiy asarlar mazmunida o'zbek millatining o'z boshidan

kechirgan tarixiy voqealari, erki va baxti, farovon hayot uchun kurashlarini yaqqol ko‘rish mumkin. Xalq musiqasining eng muhim turi – xalq ashulalaridir. Ashula – o‘zbek vokal musiqasining eng rivojlangan janri, unda ichki kechinmalar, falsafiy fikrlar, eng nozik tuyg‘ular ifodalanadi. Ashula musiqa ijrosidagi nola qochirim kabi sayqallar ko‘p ishlatiladi. Vokal – bu ashula aytishni anglatsa, simfonik degani – simfonik orkestrni jo‘r bo‘lishini bildiradi. Ashulani yakkaxonlar xor ham aytishi mumkin. Bunday ko‘rinishda yaratilib, ijro etilayotgan asarlarning janrlarini nomini vokal-simfonik asar, poema, qasida, syuita, kantata yoki oratoriya deyish mumkin.

Qasida janri – ulug‘ siymoni ulug‘lab yoki Vatanni madh etib yozgan shoir va bastakor hamkorligida yozilgan asar qasida deyiladi. M.Burxonov va A.Oripov she’ri librettosiga yozilgan hamkorlikdagi asar «Alisher Navoiyga qasida» misol qilib keltirish mumkin.

Kantata janrida hozirgi davr yoki tarixning muhim voqealari aks ettiriladi va bir necha qismdan iborat bo‘ladi. Tantanali, lirk yoki epik xarakterda yozilib, bir necha qismdan iborat bo‘ladi.

Oratoriya janri – vokal-simfonik musiqaning eng yirik janri bo‘lib, odatda dramatik mavzuda yoziladi.

Daramatik voqealar so‘z va musiqada sezilib tursa-da, kuylayotganda yakkaxonlar va xor sahnada harakat qilmaydilar.

Simfonik orkestr turli cholg‘u sozlarda uyushgan bir jamoaning birligida musiqiy asarni ijro etilishiga aytiladi. Simfonik orkestr cholg‘ulari 4 guruhga bo‘linadi: 1) torli kamonli; 2) yog‘och damli; 3) miss damli; 4) urma – zarbli;

Musiqali drama – cholg‘u va vokal musiqasi asosiy o‘rinni egallagan daramatik sahna asaridir. Sahnaviy musiqa asarlariga – opera, balet, musiqali drama va komediya, boalalar uchun yaratilgan musiqali ertaklar kirdi. Bunday janrlardagi yaratilgan asarlar teatr sahnalarida sahnalashtirilib namoyish etiladi.

Opera – musiqiy ohanglarda ifodalangan obrazlar, badiiy so‘z va musiqa hamkorligida va sahna harakatlari uyg‘unligida yaratilgan mukammal, jiddiy, yirik musiqiy asar. Opera kompozitorning talabiga javob beradigan libretto, ya’ni she’riy dramatik pyesa asosida yaratiladi. Operada voqealar, gapiriladigan so‘zlar, kuylanadigan qo‘shiqlar musiqaga asoslangan bo‘ladi.

Balet – musiqa va raqs harakatlari orqali obrazlar, voqealar yaratish san’atidir. Balet asarini daramatik mavzu, raqs, imo-ishora, nafis harakatlar, musiqa sahna bezaklari va kiyim kechaklar tashkil qiladi. Balet san’ati O‘zbekiston dastlab XX asrning 30 yillaridan boshlab tashkil topgan. «Cyevgi tunlari» M.Ashrafiy, «To‘maris» Ulug‘bek Musayev, «Raqqosa» A.Mushel Chaykovskiy «Shelkunchik» Rim-Korsakov «Shox sulton» haqida ertak. Respublikamizda opera san’atiga Muxtor Ashrafiy, Mutal Burxonov, S. Yudakov yaratgan o‘zbek operalari butun dunyoga mashhurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida so'zlagan nutqi.2016 yil, 15 dekabr.
2. Ochilova G.O., "Pedagogika. Psixologiya" fanidan o'quv uslubiy majmua -T.: 2016.
3. Fayziyev O. Va boshkalar «Uzbekiston maktablarida musikiy nafosat tarbiyasini tashkil etish» buyicha metodik kullanma. T. 1992 y
4. Kuldoshev L. «Maktab xor tugaragi» T 1975 y